

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**60910600 – “TIBBIY-BIOLOGIK ISH” ta'lif yo'nalishi  
MALAKA TALABLARI**

**Toshkent-2021**

## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Toshkent tibbiyot akademiyasi

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Tibbiyot va farmatsevtika uzlucksiz kasbiy ta’lim muassasalararo Muvofiqlashtiruvchi kengash yig‘ilishida ma’qullangan.

2021 yil «16» august dagi 4 - sonli bayonnomma.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2021 yil «31» august dagi 44 - sonli buyrug‘ining 2 ilovasi bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi xududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<b>60910600-Tibbiy-biologik ish</b> bakalavriat ta'lim yo'naliشining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	<b>60910600-Tibbiy- biologik ish</b> ta'lim yo'naliشi Malaka talabining qo'llanilishi .....	4
1.1.2.	<i>Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilar</i> .....	4
1.2.	<b>60910600-Tibbiy-biologik ish</b> ta'lim yo'naliشi bo'yicha bakalavr kasbiy faoliyatining tavsifi .....	4
1.2.1.	<b>60910600-Tibbiy-biologik ish</b> ta'lim yo'naliشi bo'yicha bakalavrklar kasbiy faoliyatining soxalari .....	4
1.2.2.	<b>60910600-Tibbiy-biologik ish</b> ta'lim yo'naliشi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy faoliyatining ob'ektlari .....	4
1.2.3.	<b>60910600- Tibbiy- biologik ish</b> ta'lim yo'naliشi bo'yicha bakalavr kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	<b>60910600- Tibbiy- biologik ish</b> ta'lim yo'naliشi bo'yicha bakalavr kasbiy vazifalari .....	5
2.	<b>60910600-Tibbiy-biologik ish</b> ta'lim yo'naliشi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari .....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar .....	6
3.2.	<i>Kasbiy kompetensiyalar</i> .....	6
	Bibliografik ma'lumotlar .....	7
	Kelishuv varag'i .....	8

## **1. 60910600- *Tibbiy - biologik ish* bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi**

**60910600- *Tibbiy - biologik ish*** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi.**

#### **1.1.1. 60910600- *Tibbiy- biologik ish* ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talabi 60910600- *Tibbiy - biologik ish* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilarini:**

- mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o‘quv reja va modul dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas’ul oliy ta’lim muassasalarining professor - o‘qituvchilari;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv reja va modul dasturlarini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;
- o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari);
- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;
- oliy ta’lim muassasasini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;
- ta’lim yo‘nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo‘lgan abiturientlar va boshqa manfaatdorlar.

### **1.2. 60910600 - *Tibbiy - biologik ish* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. 60910600 - *Tibbiy - biologik ish* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:**

**60910600 - *Tibbiy - biologiya ishi*** bakalavriat ta’lim yo‘nalishi – fan va sog‘liqni saqlash sohalariga tegishli yo‘nalish bo‘lib, ta’lim jarayonida, ilmiytadqiqot va sog‘liqni saqlash tizimi muassasalarida aholi o‘rtasida o‘tkir va surunkali kasalliklarni erta tashxislash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish, kasalliklarni tashxislashning zamonaviy usullaridan keng foydalangan holda bemorlarning tibbiy muammolari bo‘yicha asosiy vazifalarni bajarish bo‘yicha kompleks masalalarni echishni o‘z ichiga oladi.

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

### **1.2.2. 60910600-Tibbiy - biologik ish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari:**

– sog‘liqni saqlash tizimidagi jarayonlar, sog‘liqni saqlash tizimiga tegishli dasturlar, standartlar, ilmiy maqolalar, tezislar, ilmiy-tadqiqot ishlari, me’yoriy hujjatlar, ma’lumotnomalar, hisobotlar;

– ta’lim tizimidagi o‘quv jarayoni, ta’lim sohasiga ta’luqli standartlar, dasturlar, xujjatlar, o‘quvchi va talabalar, o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan usul va vositalar;

– tibbiyot asbob-uskunalarini, dori vositalari, muolajalar, resurslar, vositalar, usul va uslublar majmuasi;

– jamiyat, aholi, oila, bemorlar, tibbiy yordamga muhtoj qariyalar, kattalar va bolalar, ayollar va erkaklar;

– ilmiy-tadqiqot jarayoni, laboratoriya va anjomlar, tashxislash usullari, innovatsion texnologiyalar va loyihalar;

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob’ektlarida qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin

### **1.2.3. 60910600 - Tibbiy - biologik ish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *Tashkiliy boshqaruv;*
- *Tibbiy tashxislash faoliyat;*
- *Tibbiy-ijtimoiy faoliyat;*
- *Ilmiy-tadqiqot faoliyati.*

### **1.2.4. 60910600 - Tibbiy-biologik ish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

60910600 - Tibbiy-biologik ish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

#### **Tashkiliy - boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida:**

– sog‘liqni saqlash tizimi davolash-profilaktika muassasalarida ishni tashkillashtirish va boshqarishda ishtrok etish;

– o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish;

– tibbiyot sohasidagi boshqaruvni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga mos tarzda takomillashtirish;

– aholi sog‘ligi holatining asosiy ko‘rsatkichlarini rejalashtirish, tahlil qilish va hisobotlar tayyorlash.

### **Tibbiy-tashxislash faoliyatida:**

- aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish;
- sog‘liqni saqlash tizimida laborator tashxislash chora-tadbirlarini ishlab chiqishda ishtrok etish;
- aholi orasida keng tarqalgan kasalliklarni laborator tashxislash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtrok etish;
- tibbiy-tashxislash faoliyatida ilg‘or, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

### **Tibbiy-ijtimoiy faoliyatida:**

- ijtimoiy soha himoya organlari va rahm-shafqat xizmatlari bilan hamkorlikda tibbiy-ijtimoiy xizmat turlarini tashkillashtirish va xizmat ko‘rsatish;
- aholi o‘rtasida jismoniy, tibbiy-ijtimoiy va psixologik nufuzni tiklash va rivojlantirish.

### **Ilmiy -tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlar, oliv ta’lim muassasalarida tibbiy biologiya ishiga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;
- internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yantuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;
- tibbiy biologiya ishi, tibbiyotga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yantuqlarini o‘rganish;
- kasbiy faoliyat ob‘ekti yo‘nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihibarini o‘rganish;
- tajribaviy tadqiqotlar o‘tkazishi, ularning natijalariga ishlov berishi, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlashi, sohaga oid adabiyotlarni ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashishi;
- ilmiy seminarlar, ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etish;
- ma’lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish, ilmiy-amaliy mavzuviy jurnallarga maqolalarni tayyorlash va chop etish.

## **2. 60910600 - Tibbiy- biologik ish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar moxiyatini tushunishi, tibbiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mexnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

– sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish.

## 2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- sog‘liqni saqlashni tizimida tibbiy faoliyatni tashkil etishda ishtrok etish;
- aholi orasida keng tarqalgan o‘tkir va surunkali kasalliklar bo‘yicha barcha turdag'i tashxislash chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tadbiq etish;
- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish va mutaxassislikka doir tibbiy fanlarni talab darajasida o‘qitish;
- tibbiyot sohasida dolzarb bo‘lgan kasalliklar hamda muommolar bo‘yicha zamonaviy ma’lumot, bilimlarga ega bo‘lish va faoliyati davomida ular to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan muntazam tanishib borish;
- aholi orasida keng tarqalgan kasalliklar bo‘yicha zamonaviy tashxislash standartlarini maqsadga yo‘naltirilgan holda amaliyotda qo‘llash;
- aholini ijtimoiy muhofaza qilishda uning uchun ma’sul bo‘lgan tashkilotlar bilan hamkorlikda mavjud resurslardan unumli foydalanish;
- sog‘liqni saqlash tizimining mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni samarali boshqarishda ishtrok etish;
- tibbiyot sohasida dolzarb bo‘lgan muommolar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini talab darajasida olib borishda ishtrok etish.

## Bibliografik ma’lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

### Tayanch so‘zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta’lim yo‘nalishi, kasbiy faoliyat ob’ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o‘quv reja va o‘quv dasturlari, profil, o‘qib-o‘rganish natijalari, o‘quv sikli, tibbiy bilim, tibbiy yo‘nalishlar, sog‘liqni saqlash tizimi, klinika, laboratoriya, amaliy ko‘nikmalar, kasallik, davolash muassasalari, profilaktika, diagnostika, etiologiya, patogenez, morfologiya, profilaktika, malaka talablari, bakalavriatning o‘quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta’lim, ishlab chiqarish, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o‘quv moddular bloki, oliy ta’lim muassasasi, ta’lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.



**KELISHUV VARAG'I  
ISHLAB CHIQILDI:**

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
rektori *A.K.Shadmanov*  
2021 yil «06» 09

M.O.

Tibbiy ta'limni rivojlantirish  
markazi direktori  
*N.R.Yangiyeva*

2021 yil «06» 09

M.O.

Toshkent pediatriya instituti  
rektori *B.T.Daminov*

2021 yil «07» 09

M.O.

Fan va ta'lim boshqarmasi  
boshlig'i *A.T.Maxmudov*

2021 yil «07» 09

M.O.

Toshkent shahar sog'liqni saqlash  
Bosh boshqarmasi boshlig'i  
*A.V.Alimov*

2021 yil «07» 09

Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya

ilmiy-amaliy tibbiyot markazi

bosh shifokori *A.A.Kayumov*

2021 yil «07» 09

M.O.

Brachlar malakasini oshirish instituti

Klinik laborator diagnostika kafedrasi

kafedra madiri

*O.A.Aripov*

2021 yil «07» 09